

DAVLAT BOSHQARUVIGA OID MATNLARNI TARJIMA QILISHDA TRANSFORMATSIYA

Tugalov Husan Do‘lon o‘g‘li

SamDChTI “Yaqin sharq tillar” kafedrası katta o‘qituvchisi

Tel: +998933385819

Hamroqul-zoda Shahzod Temur o‘g‘li

SamDChTI “Yaqin sharq tillar” kafedrası o‘qituvchisi

Tel: +998331117788

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada matn tarjimasi masalalari, xususan tarjima jarayonidagi transformatsiya masalasi muhokama qilingan. Tarjima qilishda transformatsiya muammolari xitoy va o‘zbek tillari misolida tahlil qilingan. Xitoy dunyosi iqtisodda ham, siyosatda ham yetakchi o‘rinlarni egallab bormoqda va shuning bilan tarjimalar hajmi O‘zbekiston va XXR o‘rtasidagi siyosiy, madaniy va savdo aloqalarining kengayib borishi bilan proporsional ravishda o‘shishda davom etyapti. Shu sababdan xitoy va o‘zbek tillaridagi tarjima masalasi tilshunoslikdagi asosiy yo‘nalishlardan biriga aylanib bormoqda.

Kalit so‘zlar: *Tarjima, transformatsiya, tahlil, madaniyat, savdo, xitoy, o‘zbek.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы перевода текста, в частности вопрос трансформации в процессе перевода. Проблемы трансформации в переводе анализируются на примере китайского и узбекского языков. Китайский мир занимает лидирующие позиции как в экономике, так и в политике, в связи с чем объем переводов продолжает расти пропорционально расширению политических, культурных и торговых отношений между Узбекистаном и КНР. По этой причине вопрос перевода на китайский и узбекский языки становится одним из основных направлений лингвистики.

Ключевые слова: *Перевод, трансформация, анализ, культура, торговля, китайский, узбекский.*

ABSTRACT

This article examines the issues of text translation, in particular the issue of transformation in the process of translation. The problems of transformation in translation are analyzed using the example of the Chinese and Uzbek languages. The Chinese world occupies a leading position both in economics and politics, and therefore the volume of translations continues to grow proportionally to the expansion of political, cultural and trade relations between Uzbekistan and China.

For this reason, the issue of translation into Chinese and Uzbek is becoming one of the main areas of linguistics.

Key words: *Translation, transformation, analysis, culture, trade, Chinese, Uzbek.*

KIRISH

Tarjimonlik sohasida, ayniqsa siyosiy matnlar tarjimachiligi bo'yicha o'zbek-xitoy til kombinatsiyasi doirasidagi ilmiy ish va tadqiqotlar ancha oz. Bu esa o'z o'rnida xitoy va o'zbek tarjimashunoslaridan mazkur til juftligidagi tarjimachilik qonuniyatlarini ochishga yo'naltirilgan qiyosiy tadqiqotlar olib borish uchun kuchlarni safarbar qilishlarini talab etadi. Transformasiya – (*lot.* transformation – qayta tuzish). Asosiy sintaktik strukturani til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, ikkinchi tur sintaktik struktura hosil qilish¹. Masalan, aniq konstruksiyaning majhul konstruksiyaga aylantirilishi: 他把好久找不到的那本书买到了。Tā bǎ hǎojiǔ zhǎo bù dào dì nà běn shū mǎi dào le—他买到了好久找不到的那本书。(U uzoq vaqtdan buyon izlayotgan ana u kitobini sotib olishga muvaffaq bo'ldi). Grammatik transformatsiya – bu birinchi navbatda gapni qayta qurish (uning strukturasi o'zgartirish) va ham sintaktik, ham morfologik tartibda turli almashtirishlardir.

MUHOKAMA

O'zbek tili va xitoy tillaridagi grammatik kategoriya va shakllarni qiyoslash jarayonida quyidagi hodisalarni kuzatish mumkin:

- 1) Tillardan birida u yoki bu kategoriyaning mavjud bo'lmashligi;
- 2) Qisman mos kelish;
- 3) To'liq mos kelish.

Grammatik transformatsiyalarga zaruriyat, tabiiyki, birinchi va ikkinchi holatlarda yuzaga keladi.

Muvofiq shakl va konstruksiyalar ma'nosida va qo'llanilishida qisman mos kelish yoki mos kelmaslik ham grammatik transformatsiyani talab etadi. Bu yerga son kategoriyasining qisman mos kelmasligi, majhul nisbat konstruksiyalarining qisman mos kelmasligi, modallilikning to'liq bo'lmagan mos kelishi kabi hodisalarni kiritish mumkin.

Grammatik transformatsiyani ikki turga ajratish mumkin: qayta joylashtirish va almashtirish.

Qayta joylashtirish tarjima transformatsiyasining bir turi bo'lib, bu aslyat matniga nisbatan tarjima matnidagi til unsurlarining joylashuv (ketma-ketlik) tartibini o'zgartirish hisoblanadi. Qayta joylashtirishga uchrashi mumkin bo'lgan unsurlar bu

¹ A.Hojiev, *Lingvistik terminlarning izohli lug'ati*. – T.: O'qituvchi, 1985. – B 94.

odatda matn qurilishidagi soʻz, soʻz birikmalari, qoʻshma gap qismlari va mustaqil gap.

Almashtirish tarjima transformatsiyasining eng keng tarqalgan va koʻpqirrali turidir. Tarjima jarayonida grammatik birliklar – soʻz shakllari, soʻz turkumlari, gap boʻlaklari, sintaktik munosabat tiplari almashtirilishi mumkin.

Leksik transformatsiya. Har qanday soʻz, yaʼni leksik birlik bu tilning lugʻat tizimi boʻlagidir. Bu bilan turli tillarda soʻz semantik strukturalarining oʻziga xosligi tushuntiriladi. Turli tillarda soʻz mazmunida koʻpincha shu til tashuvchilariga xos boʻlgan dunyoni his qilishi oʻz ifodasini topgan bir xildagi hodisa yoki tushunchalarning turlicha belgilari ajralib turadi. Bu esa tarjimada qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, xitoy tilidagi 眼红 Yǎnhóng soʻzi “hasad qilmoq” maʼnosini anglatadi. Aslida mazkur soʻzning birinchi komponenti 眼 yan “koʻz”, 红 hong “qizil” demak. Oʻzbek qarashida koʻzning qizarish bu “jaxli chiqish, gʻazabi qaynash” kabilarni anglatadi. Koʻrinib turganidek, bir xildagi xolat ikki xil millat mentalitetida turlicha oʻz aksini topar ekan.

Transformatsiya tiplari: Transliteratsiya va transkripsiya.

Transliteratsiya va transkripsiya usuli oʻzbek tilidagi atoqli otlar, geografik nomlar, kema, samolyot, roʻznoma, jurnal, firma nomlarini xitoy tiliga tarjima qilishda qoʻllaniladi.

Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi aslyatda qoʻllanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud boʻlmaganligi tufayli aslyatning milliy xususiyatini tarjima tili soxiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qoʻyish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi xolatlarga yoʻl qoʻymaslikdan iboratdir. Amerika Qoʻshma Shtatlari “dollar”ining, ingliz “funt sterling”ining, nemis “marka”siyu xind “rupiya”sining, afgʻon “afgʻoniy”sining transliteratsiya kilinmasdan, oʻzbek “soʻm”i bilan almashtirib qoʻyilishi, AQSh “brendi”si, ingliz “viski”si, nemis “shnapse”sining rus “vodka”si orqali talqin etilishi ingliz boshiga “shlyapa” oʻrniga oʻzbek “doʻppi”sini, egniga “palto” yoki “plashch”oʻrniga “toʻn” yoki “yaktak” kiygizib qoʻyish bilan baravar”².

一夜时间它们可以在安集延州的某个地方隐藏起来，或者通过边境潜入吉尔吉斯斯坦贾拉拉巴德州和奥什州境内。Yīyè shíjiān tāmen kěyǐ zài ānjíyán zhōu de mǒu gè dìfāng yǐncáng qǐlái, huòzhě tōngguò biānjìng qiánrù jí’ěrjísī sītǎn jiǎ lā lābā dézhōu hé ào shén zhōu jìngnèi-Bir kechada ular Andijonning biron bir joyiga yashirinishlari yoki Qirgʻizistonning Jalolobod va Oʻsh shtatlari chegarasidan oʻtib ketishlari mumkin.

² Q. Musaev, Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – B 3.

Kal’kalah – o‘zga tilning leksik, frazeologik birliklarining modellari asosida o‘z til elementlaridan foydalanib so‘z yoki frazeologik birliklar hosil qilish³. Ekvivalenti mavjud bo‘lmagan leksikani yetkazib berishning bu uslubi o‘zbek tilidagi so‘z yoki so‘z birikmasini qismlarga bo‘lib tarjima qilish va kelgusida tarjima qilingan qismlarni birlashtirishdir. Masalan,

Oliy Majlis — 最高议会 Zuìgāo yìhuì (最高 *zuigao* —“oliy”, 议会 *yihui* —“majlis”)

Korrupsiya — 营私舞弊 Yíngsī wǔbì (营私 *yingsi* —“manfaatni ko‘zlamog‘”, 舞弊 *wubi* —“suistemol qilmoq”, “qonunga xilof ish tutish”)

Almashtirish va uning turlari:

- a) So‘z shaklini almashtirish,
- b) So‘z turkumlariga mansublikni almashtirish,
- c) Gap bo‘laklarini almashtirish,
- d) Gapdagi tarkibiy qismlarni almashtirish.

“Axborot erkinligini ta‘minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o‘z fikri va g‘oyalarini, sodir bo‘layotgan voqealarga munosabatini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, demokratiyani chuqurlashtirish va aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki to‘g‘isida so‘z yuritib bo‘lmaydi, degan tushuncha jamoatchiligimiz o‘rtasida tobora kuchayib va mustahkamlanib bormoqda”.

我们的舆论界这样一种观念在增强：不保证新闻报道的自由，不把大众媒体变成人们能自由表达自己的观点和思想、表达对所发生的事件的立场和态度的舞台，就谈不上深化民主政治和增强居民的政治积极性，就谈不上居民实际参与国家的政治和社会生活。Wǒmen de yúlùn jiè zhèyàng yī zhǒng guānniàn zài zēngqiáng: Bù bǎozhèng xīnwén bàodào de zìyóu, bù bǎ dàzhòng méitǐ biàn chéng rénmen néng zìyóu biǎodá zìjǐ de guāndiǎn hé sīxiǎng, biǎodá duì suǒ fāshēng de shìjiàn de lìchǎng hé tàidù de wǔtái, jiù tán bù shàng shēnhuà mínzhǔ zhèngzhì hé zēngqiáng jūmín de zhèngzhì jījìxìng, jiù tán bù shàng jūmín shíjì cānyù guójiā de zhèngzhì hé shèhuì shēnghuó-Ijtimoiy fikr doiralarmizda axborot tarqatish erkinligini kafolatlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o‘z fikr va mulohazalarini erkin ifoda eta oladigan, sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z pozitsiyasi va munosabatini bildiradigan sahnaga aylantirmasdan turib, shunday fikr kuchaydi. Demokratik siyosatni chuqurlashtirish va aholining siyosiy ishtiroqini oshirish uchun rezidentlarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi haqiqiy ishtiroki haqida gapirib bo‘lmaydi Ushbu ko‘rsatilgan jumlada o‘zbek tilidagi matn so‘nggida

³ A.Hojiyev, Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1985. – B 41.

keltirilgan rema xitoy tilidagi tarjima matnida matnning boshida keltirilib u tema vazifasini o'tagan.

Qo'shish – tarjimada asliyat leksik birligi ma'nosini tiklash uchun so'z qo'shish.

O'tgan yilning dekabr oyida O'zbekistonda bo'lgan Xalqaro valyuta fondi missiyasi 2004 yilda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlarimizga yuqori baho berdi.

2004 年 12 月来乌兹别克斯坦考察的国际货币基金委员会的委员们，对我门 2004 年进行的经济改革予以了高度评价。2004 Nián 12 yuè lái wūzībiékè sītǎn kǎochá de guójì huòbì jījīn wěiyuánhùi de wěiyuánmen, duì wǒ mén 2004 nián jìnxíng de jīngjì gǎigé yǔyǐle gāodù píngjià⁴

Tushirib qoldirish – asliyat tilidagi so'zni tarjima tiliga tarjima qilayotganda tushirib qoldirish.

O'zbekistonda ham shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek, boshqa proressual majburiy choralarini qo'llash uchun sanksiya berish huquqlarini ham sudlarga o'tkazish kerak⁵.

在乌兹别克斯坦也必须把下发批准拘押、逮捕以及使用其他强制措施命令的权利转归法院。Zài wūzībiékè sītǎn yě bixū bǎ xià fā pīzhǔn jūyā, dàibǔ yǐjǐ shǐyòng qítā qiángzhì cuòshī mìnglǐng de quánlì zhuǎn guī fǎyuàn⁶.

Mazkur jumlada “shaxsni” va “proressual” so'zlari tushirib qoldirilgan bo'lib, gap sud-huquq tizimi sohasida borayotganligi sababli “ko'rilayotgan choralar”ning “proressual”ligi ravshan. Tarjimada bu so'zni “诉讼的” *susong de* deb berishimiz ham mumkin. Ushlab turish, hibsga olish kabi harakatlar sud-xuquq tizimida shaxsga nisbatan qo'llanilishi muqarrarligi tufayli, tarjimada “shaxsni” so'zini ham tushirib qoldirish mumkin. Har ikkala so'zni tushirib qoldirsak ham, jumla mazmuni aslo o'zgarmaydi.

Umumiyashtirish – bir tilda juda muayyan mazmunga, boshqa tilda esa umumiy mazmunga ega so'z-realiyalarni qo'llash uchun ishlatiladi.

Saylovchilar tashabbuskor guruhlari tomonidan Qonunchilik palatasiga ko'rsatilgan 54 ta nomzoddan 12 nafar mustaqil deputat saylangani ham alohida e'tiborga loyiq, deb o'ylayman⁷.

我认为，居民中有主动精神的团体推举的 54 名候选人中，有 12 名独立的代表进入立法院这样一个事实也值得人们认真关注。Wǒ rènwéi, jūmín zhōng

⁴伊斯拉姆 · 卡里莫夫/刘显忠等。 乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006 年。第 26 页。

⁵I.A.Karimov, O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 187.

⁶伊斯拉姆 · 卡里莫夫/刘显忠等。 乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006 年。第 11 页。

⁷I.A.Karimov, O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 175.

yǒu zhǔdòng jīngshén de tuántǐ tuījǔ de 54 míng hòuxuǎn rén zhōng, yǒu 12 míng dúlì de dàibiǎo jìnrù lìfǎyuàn zhèyàng de yīgè shìshí yě zhídé rénmen rènzhēn guānzhù.

Anatomik tarjima – aslyat tili strukturasi tarjima tilining anatomic strukturasi ga muvofiq tarjima qilinadigan tarnformatsiya.

Tinchlikni saqlang!—禁止喧哗 Jìnzhǐ xuānhuá (so‘zma-so‘z 禁止 *jinzhi* – ta‘qiq-lamoq, 喧哗 *xuanhua* – shovqin solmoq)

Tasviriy tarjima. Tarjimaning bu turi so‘z yoki so‘z birikmasining kengaytirilgan izohini ko‘zda tutadi. Mazkur turdan o‘zbek tilidagi so‘zning ifodalagan realiyalari xitoy tilida mavjud bo‘lmagan holatlarda ishlatiladi.

Sarbon – 驮运队的首长 Tuó yùn duì de shǒuzhǎng (so‘zma-so‘z bo‘ktargi, yuk tashuvchi tizilib yuradigan hayvonlar guruhi yetakchisi).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. I.A.Karimov, O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. – T.: O‘zbekiston, 2006. 198 b.
2. Sh.M. Mirziyoyev, Yoshlarga murojaat nutqidan 2021-yil
3. 伊斯拉姆卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人.北京：时事出版社，2006年。198页。
4. A.Hojiev, Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent, O‘qituvchi, 1985. 283 b.
5. B.A.Sattorov, Xitoycha-O‘zbekcha rasmlı lug‘at, Toshkent, “Yangi asr avlodi” 2020. 291 b.
6. Курбонов, Бобур. ““МАЖОЛИС УН-НАФОИС” ВА “ЛАТОЙИФНОМА” ТАЗКИРАЛАРИДА ЗУЛЛИСОНАЙНЛИК АНЪАНАСИ ИФОДАСИ” Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 3, 2022, pp. 50-57. Hamdamova, Charos Hamdamovna. "HSK 5 IMTIHONI O‘QISH VA YOZISH KO‘NIKMASIGA TAYYORLANISHNING ENG OSON VA SAMARALARI YO‘LLARI" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 3, no. 11, 2023, pp. 806-810.
7. Quliyeva, Durdon . "Mo Yanning “Qurbaqa” romanidagi ba’zi personajlar ismlariga oid" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. Special Issue 28-2, 2022, pp. 213-219.
8. Q.Musaev, Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, Fan, 2005. 306 b.
9. T.Akimov, J.A.Kiraubayev, Xitoycha-o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at. Toshkent, Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2002. 226 b.
10. 刘延勃。哲学辞典。– 吉林：吉林人民出版社，1985年。Liu Yanbo. Zhexue cidian. – Jilin: Jilin renmin chubanshe, 1985 nian. 294 页